
YANGI YIL BAYRAMI MUNOSABATI BILAN “PREZIDENT ARCHASI” BAYRAM TADBIRLARI BO‘LIB O‘TDI

Bugun Toshloq tumani markazida «Prezident archasi» tadbirlari yuqori saviyada tashkil etilib, tadbirga tashrif buyurgan Qorbobo, Qorqiz hamda ertak qahramonlarining chiqishlari bolajonlarga haqiqiy bayram kayfiyatini ulashishdi. Bayram tadbirida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektorlar rahbarlari qatnashib, tuman ahlini Yangi yil bayrami bilan samimiy muborakbod etdilar. Tuman hokimi ortda qolayotgan yilimiz tumanimiz uchun ulkan yutuqlar, muvaffaqiyatlar, shuningdek, o‘zgarishlar, xayrli voqealar yili sifatida tarix sahifalarida muhrlanayotganligini ta’kidlab o‘tdi. Tuman madaniyat bo‘limi xodimlari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturi barchaga yangi yil quvonchini ulashdi. Shundan so‘ng, barcha bolajonlarga bayram sovg‘alari topshirildi.

2023-12-29 13:01:26